



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INSON HUQUQLARI BO'YICHA SUD ISLOHOTLARI

Bektursunov Shahzod Baxtiyor o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Tarix fakulteti.
Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi yo'nalishi 2-kurs
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7582785>

ARTICLE INFO

Received: 24th January 2023

Accepted: 26th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

*Sud tizimi, islohot, ma'muriy
huquqbuzarliklar, protest,
investitsiyaviy nizo, normativ-
huquqiy hujjatlar.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada sud sohasida inson huquqlari bo'yicha
qilinayotgan islohotlar to'g'risida atroflicha so'z boradi.
Maqola davomida turli fikr va mulohazalar keltirilgan
bo'lib, maqola ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Maqola
so'nggida xulosa keltirilgan.*

Sud tizimining isloh etilishi inson huquq va erkinliklari kafolatini kengaytiradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar sudyalarimizni qonun ustuvorligini ta'minlashda tinmasdan izlanishiga, tajribalarini boyitib borishiga, kasbining sharaflash yo'lida hech qachon charchamasliklari, sudya degan ulug' nomga dog' tushirmaslik uchun o'z xalqiga, davlati tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga sadoqatli bo'lish ham qarz, ham farzdir.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ushbu jarayonlar Prezidentimizning tashabbusi bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin ifodasidir. Sud va sudyalarimizning obro'sini ko'tarish ularning mustaqilligini ta'minlash har doim davlatimiz rahbarining bosh maqsadlaridan biri bo'lib kelgan.

Xalqimizning tom ma'nodagi adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun islohotlarga nafaqat mas'ul shaxslar, balki har bir fuqaro ham hissasini qo'shishi zarur. Sudning mustaqilligi va ta'sirchan faoliyati so'zda emas, amalda ta'minlanishi uchun qonun ustuvorligini ta'minlash, jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, odamlarning o'z huquqlarini talab qilish qobiliyatini rivojlantirish, qilmish uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga erishish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni O'zbekistonda mustaqil sud hokimiyatini shakllantirishga qaratilgan sud-tizimini demokratlashtirish va isloh qilish, qonunchilikni liberallashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta'minlovchi keng ko'lamlı tadbirlarni amalga oshirishga yo'l ochadi.

Mazkur farmonning qabul qilinishi sud-huquq islohotining muhim bosqichi, ulkan yutug'i

bo'ldi va qonunchilikda tub burilish yasaydi. Ushbu farmonning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida chuqur tushunchaga ega bo'lishimiz, umuman sohadagi islohotlarga boshqacha nazar bilan qarashimiz va qonun ustuvorligini ta'minlashda adolat mezoniga rioya qilgan holda sudlar faoliyatini tashkil qilish lozim bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlarining tashkil etilishi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanmasligiga, yagona sud amaliyoti ta'minlanishiga, sudlar tizimining amaldagi tuzilmasi va shtat birligi xizmat vazifalarini oqilona taqsimlash, sudlarni zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish va maqbullashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazish, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlarini tashkil etish, shu munosabat bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tugatilishi ishlarni ko'rishda sansolarlikka yo'l qo'yilishining oldi olinishiga zamin yaratadi. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari saqlab qolinishi ushbu yangilik ish hajmini sezilarli darajada qisqartirish, aksariyat ishlarni ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish va tezlashtirishga imkon yaratadi, fuqarolarning odil sudlovga hech bir to'siqsiz murojaat qilishi uchun imkon yaratiladi.

Sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish institutini tugatish, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlarining sudning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari hamda qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqini bekor qilish sud-huquq islohotlari yangi bosqichining asosi bo'lib, sud qarorlarini qayta ko'rishning bir-birini takrorlovchi bosqichlarini bekor qilishga, sud organlarining amaldagi tuzilishini zamon talablari va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi va quyi sudlar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni viloyat sudlari o'z vakolati doirasida bartaraf qilishlari shartligi mustahkamlab qo'yildi, shuningdek fuqarolarning viloyat sudlaridan norozi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga adolat izlab kelishlarini kamaytirish chorasini hisoblanadi, bunday sarson sargardonlikka yo'l qo'yishning oldi olinadi.

Jinoyat ishlarini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida ish yuzasidan qarorlarni tortishuv tamoyiliga rioya etgan holda taraflar ishtirokida qabul qilish tartibini belgilash, jinoyat ishining umumiy tartibda ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi dastlabki eshituv bosqichini kiritilishi odil sudlovni to'la-to'kis amalga oshirish, qonunning ustuvorligini ta'minlashga, asosiy vazifalari shaxsni javobgarlikka tortish va jazo tayinlash bo'lib qolmasdan, balki jinoyatchilikning oldini olish va uni keltirib chiqaradigan sabablarini aniqlashga ko'proq qaratilishi maqsadida kiritilganligi yaxshi natija beradi degan umiddamiz.

Chunki, shaxsni javobgarlikka tortish va sud kursiga o'tqazish so'ngi choradir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tuzilmasida investitsiyaviy nizolarni hamda raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sudlov tarkibing tuzilishi, bu investorlarga haq- huquqlarini himoya qilishda katta yo'l ochadi va investorlar huquqlarining ishonchli sud himoyasida bo'lishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tuzilmasida Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish boshqarmasi tarkibiy tuzilma (lavozim)lar

kiritilishi esa doimiy ravishda sudlar faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti bo'yicha monitoring o'tkazib, joylarda bevosita sud amaliyotini o'rganishga va tadqiqot natijalari yuzasidan uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

Har qanday qonun hujjati ham ijtimoiy turmushning o'zgarishiga, jamiyatning taraqqiyotiga qarab takomillashib borishi tabiiy hol. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni loyihasining ishlab chiqilishi sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda muhim qadam bo'ladi. Mazkur Qonunning muhim xususiyati shundan iboratki, sudlarning tuzilishi, tuman (shahar), tumanlararo, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlarning, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining, Rayosatining Plenumining vakolatlari doirasi; sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarga nisbatan qo'yiladigan talablar; sudyalar, sud raislari va rais o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tartibi; sudyalarning maqomi, ularning mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish; sudyalarga nisbatan intizomiy ish faqat sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan qo'zg'atilishini nazarda tutgan holda, sudyalarning intizomiy javobgarligi, intizomiy ishni qo'zg'atish va ko'rib chiqish tartibi; sudyalar vakolatlarini to'xtatib turish, shuningdek, tugatish asoslari va tartibi; sudyalarning moddiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish choralarini kiritilishi qonunan mustahkamlab qo'yilishi sud islohotlarining mantiqiy davomi bo'ladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, so'nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasida strategik ahamiyatga ega muhim qadam tashlandi.

Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Sudyalar oliy kengashi tashkil qilindi. Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o'z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o'tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o'z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'ravonlik holatlari qat'iy taqiqlandi.

Sudda ishlarni ko'rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro'yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi yo'lida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko'rib chiqildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.

Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e'tirofqa loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta

tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobilik asosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Albatta, malakali va yetuk sudyalarning korpusini hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralari bo'lgan ishonchni oshirish, adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash, tom ma'noda sudni "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish hamda odil sudlovning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi. Endi, bundan buyon prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiyasi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, shuningdek, tumanlararo sudlarning qarorlarini viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Aybiga iqrorklik bo'yicha kelishuv instituti joriy qilindi. U mamlakatda jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligining tatbiq etilishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasi yuqori pog'onaga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, insoniylik nuqtai nazaridan, voyaga yetmagan mahkumlarning yaqinlari bilan uchrashish huquqiga nisbatan bo'lgan cheklovlar bekor qilindi. Mahkuma ayollarning o'z farzandlari bilan uchrashishining alohida tartibi belgilandi va mahkumlarning uchrashuvlari hamda telefon orqali muloqotlari soni ko'paytirildi.

2020-yilning oktabr oyida milliy davlatchilik tarixida ilk bor O'zbekiston BMTning asosiy organlaridan biri – Inson huquqlari kengashiga a'zo etib saylandi. Bu mamlakatda inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanayotganining xalqaro e'tirofidir. AQSH Davlat departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik bo'yicha "Maxsus kuzatuvdagi davlatlar ro'yxati" ("Special Watch List")dan chiqarilganini e'lon qildi. Bunday natijaga erishish yo'lida O'zbekiston ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlarni konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqdi. Jumladan, 20 ming nafardan ziyod fuqaro "maxsus ro'yxatlar"dan chiqarildi.

Davlat rahbari tomonidan afv etish tizimining yo'lga qo'yilgani va izchil tarzda davom ettirilayotgani mamlakatda olib borilayotgan islohotlar insonparvarlik tamoyillariga to'liq mos ekaniga dalildir. Jumladan, 2017–2020-yillarda jazo muddatini o'tayotgan 5 mingga yaqin mahkumga nisbatan afv etish aktlari qo'llanildi. Ushbu davr ichida xulqi ijobiy tasniflangan 67,4 ming mahkumga nisbatan yengil choralar qo'llanildi. Xususan, bu borada 2020-yil davomida Prezident tomonidan 5 ta tegishli farmon imzolandi. Natijada, 616 nafar mahkum afv etildi. Afv etilgan shaxslarning 274 nafari jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi, 237 ta shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi, 76 nafariga tayinlangan jazo yengilrog'i bilan almashtirildi. Afv etilganlarning 87 nafarini ayollar, 29 tasini chet el fuqarolari, 290 nafarini taqiqlangan tashkilotlar ishtirokchilari tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng

asosiy va zarur shartiga aylantirish” ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida mustahkamalangan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda asosiy maqsadlardan biri davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi sud-huquq sohasidagi ham islohotlarning yangi bosqichi boshlanmoqda hamda bu borada strategik harakatlar amalga oshirilmoqda. Loyihada keltirilgan takliflar fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchining ortishiga, ularning huquq va erkinliklari himoyasi, malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan huquqlari kafolatlarini mustahkamlashga, qonunbuzilish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sud tizimidagi bu kabi yangi qarorlarning qabul qilinishi va o‘zgarishlarning izchil amalga oshib borishi haqiqatdan ham xalqimiz ko‘z o‘ngida sud haqiqiy odil, insonparvar, qonun ustuvorligini ta‘minlaydigan organga aylanishi uchun astoydil va muntazam o‘z kasbini sevuvchi sudyalalar mustaqilligini ta‘minlash uchun huquqiy asoslarni kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Udalsova. Sosiologiya upravleniya - Uchebnoye posobiye. - Novosibirsk, 1999 g.
2. Smelzer N. Sosiologiya. - M., 1994 g.
3. Sokanova G. Ekonomicheskaya sosiologiya. - Minsk. «Visshaya shkola», 1998.
4. Radayev V. Ekonomicheskaya sosiologiya. - M.: Aspekt-Press, 1998.
5. Ribanovskiy. Migrasiya naseleniya, M., 1989 g.
6. Xolbekov A, Idivov U. Sosiologiya. Toshkent. 1999 yil.
7. Osipov S.S. Osnovi sosiologii. Moskva. 1997.

INNOVATIVE
ACADEMY